

ISTE'DOD ZIYOSI
8-jild



O'zbek milliy kurashi, gimnastika, shaxmat, sharqona yakka kurashlar bo'yicha mahalliy millat qizlaridan tarkib topgan jamoalar (komanda)ning mavjudligi e'tiborga molikdir. Ularga berilayotgan e'tibor va imkoniyatlarni yengil atletika, suvda suzish sport o'yinlari kabi eng zarur sport turlariga ham qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

A. Sharipov (UrDU dotsenti), L. Abdirahmonov (1-kurs magistranti)
**TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIMNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN
O'ZARO BOG'LIQLIGI**

Mamlakatning ertangi kuni va uning taraqqiyotini belgilovchi kuch – bu shu jamiyatda o'sib kelayotgan yosh avlod hisoblanadi. Ertangi kunimizning bugunimizdan qay darajada va qay tarzda farq qilishi ham yoshlarning tafakkuri va bilim salohiyati bilan o'lchanadi.

Oliy ta'lim tizimida mustaqil ishlarni tashkil qilishga va oliy maktabdagi o'qitish jarayoni o'qitishning shakl va metodlarini tashkil qilishning ko'pqirrali yagona tizimi ramkasida amalga oshiriladi. Oliy maktabdagi o'quv jarayoni shakllari orasida talabalarning mustaqil tahsili muhim o'rin egallaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday o'quv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikmalarni shakllantirish ham mustaqil fikrlashning tashkil etilishi ta'minlanadi. Amaliyotda xususiy-didaktik maqsadlarga bog'liq ravishda 4 ta mustaqil ish tipida amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi: talabalarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'stirishdir.

Mustaqil ta'limning vazifalari: shaxs (talaba)ning intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining birinchi turi – bu dastlabki bilimlarning (birinchi bosqich) shakllanishi omillari asosida talabalarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlash.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining ikkinchi turi esa o'zlashtirilgan axborotlar xotirada qayata ishlanishi va tipik vazifalarni, ya'ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi. Bunda talabalar o'zlari ish olib borayotgan mavzulari borasida mustaqil fikrlay olishlari ma'lumotlarni idrok qilgan holda, buni amalda isbotlay lishlari zarur.

Mustaqil ishlarning ikkinchi tipi barcha turlarining umumiy tavsifnomasi shundaki, talabalarning vazifani hal qilish g'oyasini ilgari suradi va talabalar ushbu g'oyani amaliy sharoitda tatbiq etishlari talab qilinadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining uchinchi turi – bu turdagi ishlar vazifasining mohiyatini izlash, yechimlar g'oyasini ifoda qilish, amalgam oshirishdan iborat.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining to'rtinchi turi – ijodiy faoliyatga omillar yaratish.

Bunday ishlarni bajarishdagi talabalarning bilish faolligi shundan iboratki, bunda talabalar muhokama qilinayotgan obyekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradilar va zarur bo'lgan yangi, oldindan noma'lum bo'lgan g'oyalarni topishlari va buning asosida yangi fikrlarni ilgari suradilar. Bu esa bizning mustaqil ta'lim jarayonidagi eng muhim maqsadlarimizdan biridir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

- ◆ namunalar bo'yicha mustaqil ishlar;
- ◆ rekonstruktiv-variativ;
- ◆ evristik (qisman, ijodiy);
- ◆ ijodiy tadqiqot.

Mustaqil ishni samarali va amaliy ahamiyatga molik qilib ishlab chiqishda bir qator jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur, chunki oddiy va har qanday materialni boricha qog'ozga tushurish yoki uni taqdimot tarzida namoyish qilish talabada ijobiy natija bermaydi.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda talabaning akademik darajasiga va ma'lumotlarni qay darajada o'zlashtirishiga qarab, quyidagi tartibda tashkil qilishi mumkin:

- ◆ amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ◆ ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- ◆ kurs ishi bajarish;
- ◆ bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun ma'lumotlar to'plash;
- ◆ ilmiy maqola, tezis va ma'ruza tayyorlash;
- ◆ uy vazifalarini tayyorlash va boshq.

Hozirgi davrda ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mana shu sababli barchamiz "yangi pedagogik texnologiyalar" atamasini ishlata boshladik. Har qanday faoliyatda bo'lgani kabi, mustaqil tahsilni tashkil qilishda ham bu muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, kompyuter tarmoqlari Yer sharining barcha nuqtalari bilan aloqa qilish imkonini beradi. Talaba mustaqil tahsilni olib borish jarayonida o'ziga berilgan mavzu bo'yicha, iloji boricha, ko'proq ma'lumot yig'ishi zarur, keyinchalik, shu ma'lumotlar orasidan ilmiy asoslanganlaridangina foydalanish mumkin. Mustaqil ta'lim tizimi uchun bu o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida kommunikatsiya uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtayi nazaridan, ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu kabi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lmagan juda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tishga imkon beradi. Bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lim olish inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Internet va "Butun jahon tarmog'i" barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo'lib xizmat qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog'liq sohalar hamda ta'lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar – saytlar ta'lim tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo'qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

Axborot-tarbiyaviy faoliyat. Yangi axborot texnologiyalari fan va ta'limni to'plangan bilimlarni yetkazish, ularni to'ldirish va qayta baholash kabi yanada ya-qin va samarali kanallari bilan bog'lashga imkon beradi. Bugungi kunda fan – bu ta'lim tizimini rivojlantirish asosiy, ustun turuvchi vositasi. Bu har doim ham bo'lmagan, ilg'or axborot texnologiyasi ta'lim tizimida fanning ahamiyatini o'zgartirdi. Jamiyat faqat fanning o'zi rivojlanishi bilan emas, balki ta'lim va o'qitish tizimi bilan ham bog'liq yangi ilmiy tuzilishni yaratadi. Hozirgi kunda internetda taxminan 2,5 mlrd noyob barcha foydalanadigan veb sahifalar mavjud bo'lib, har kuni ular qatoriga yana 7,3 mln yangilari qo'shilmoqda. Bu esa mustaqil ishni elektron saytlardan foydalanish orqali ishlash va samaradorligini oshirishga talabning xorijiy ma'lumotlarga bo'lgan munosabati va ta'sirini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Barkamol, har tomoonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash muammosi ta'lim tizimidan yosh avloddan faqat milliy madaniyat yutuqlarini emas, balki umuminsoniy dunyo madaniyati yutuqlarini ham egallab olishga intilishni shakllantirishni talab etadi. Barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasi milliy mustaqillikning ustuvor g'oyalariidan biri hisoblanadi. Ta'lim sifatini, ma'naviy-g'oyaviy tarbiyasi darajasini oshirish vazifasi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish so'zsiz yangi axborot texnologiyalariga asoslanishi zarur. Ta'lim tizimini rag'batlantirmay turib, fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmaydi. Ta'lim tizimi yopiq nuqtayi nazarlar, qarashlar statik tizimi emas, bir uzluksiz jarayondan iborat bo'lishi kerak. Mustaqil Respublikamizning rivojlanishini kafolatlash uchun ta'lim tizimi dinamik, mukammal bo'lishi kerak. Gumanitar ta'lim tizimi – bu shaxsiy fikrlashini qayta anglab yetish, yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish, doimiy fikr almashish doimiy jarayoni.

Shularni e'tiborga olgan holda talabalar mustaqil ishni tashkil etishda nazarda tutilgan talablarga rioya qilsagina, biz o'z maqsadimizga erishgan bo'lamiz, ya'ni talaba o'ziga berilgan mavzu bo'yicha ilmiy asoslangan materiallar bilan ishlaydi va ongli ravishda faoliyat olib borishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T., 2006, 160 b.
3. internet saytlari

Oygul Matqurbonova (lingvistika o'zbek tili 1-kurs talabasi)

OMON MATCHON IJODIDA DIALEKTIZMLARNING QO'LLANISHI

Mustaqillik sharofati bilan bugungi kundagi o'zbek millatining shuhratini olamga yoyatgan, o'zining ijodi bilan xalqimizning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga munosib hissa qo'shayotgan ijodkorlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular xalqimiz tarixida o'zlarining mustaqillik mafkurasi va aql-idrok bilan milliy-ma'naviy vatanparvarlikni, ma'naviy dunyoqarash bilan hayotiy zukkolikni ijodlarida mujassam etishmoqda.

O'zbek she'riyati daftarida atoqli shoir Omon Matjonning alohida sahifasi bor. Shoirning yuksak tuyg'u va o'ziga xos ohang bilan yo'g'rilgan satrlarini boshqa biron-bir ijodkor bilan adashtirish qiyin. Uning she'rlari qo'shiqlarga aylanib, insonlar qalbini zabt etib ulgurgan.

O'zbek tilining yashirin imkoniyatlaridan, lug'aviy boyligidan yaxshi xabardor bo'lgan Omon Matchon she'rlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, so'z qo'llash borasidagi ayrim jihatlar haqida ma'lum bir fikrlar bayon qilingan bo'lsa-da, uning ijodida dialektizmlarni qo'llash mahorati tilshunoslik nuqtayi nazaridan hozirga qadar yetarli o'rganilgan emas. Bu esa mazkur maqolaning dolzarbligini bildiradi.

Ijodkorlar o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib, shevaga xos so'zlarni ishlatadi. Sheva so'zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirish bilan birga, "badiiy nutqda muayyan estetik vazifani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi, ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo'llanishi bilan bog'liqdir".¹

Omon Matchon tasvirni badiiy-estetik jihatdan ta'sirchan va yorqin ifodalash uchun dialektizmlardan o'ziga xos foydalanadi. Bu shoirning individual uslubi so'zlashuv nutqi imkoniyatlaridan foydalanishi va umumxalq tilining chegaralangan qatlamlari boyligini o'zida aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Xususan, shoir she'rlariga yuzlanar ekanmiz, shevaga xos so'zlardan vazn talabi yoki badiiy emo-tSIONALLIKNI oshirish, shuningdek, ayrim so'zlarni adabiy tilda mavjud bo'lmagan-ligi sababli qo'llaganini va mahalliy koloritni akslantirish maqsadlarida unumli foydalanganini ko'rishimiz mumkin.

Omon Matchon Xorazm farzandi bo'lganligi sababli, uning she'rlarida Xorazm shevasiga mansub dialektizmlar ko'p uchraydi. Aksariyat dialektlar o'g'uz lahjasiga oid. Ushbu masala yuzasidan shoirning bir qator she'rlarini tahlil qila-miz:

Quyong'larga juda o'ch-da,

Ichida eng irisi...² ("O'layotgan ajdaho" she'ridan)

She'rda *irisi* so'zi kattasi, semizi, yirigi degan ma'nolarni bildiradi, ya'ni ilonlarning eng yirigi nazarda tutiladi. Adabiy tilda ushbu so'zning yirigi degan varianti faol qo'llanadi. *Irisi* so'zi she'rda mahalliy koloritni shakllantirib, estetik-emo-tSIONALLIKNI oshirgan.

Qarang. yozda ham yechmaslar

¹ Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. Toshkent, "Fan", 1981, 24-bet.

² Omon Matchon. O'rtamizda birgina olma. "O'qituvchi", Toshkent, 1990, 42-bet.

MUNDARIJA

1. Д.Обидов. Пифагорнинг мусика ва ранглар назарияси.....	3
2. Д.Ишмимов. Интеграционные процессы в развитии системы высшего образования в Узбекистане.....	4
3. D.Ishimov. Meanings of internationalization and globalisation.....	9
4. B.Yadgarov, M.Jumaniyozova. Sogʻlom turmush tarzi – barkamol avlod shakllantirishning asosi.....	12
5. Ў.Матназаров, К.Вапаев. Техничко-тактические упражнения для подготовки футбольного вратаря.....	13
6. S.Bekmonova. Oʻzbekistonda xotin-qizlar oʻrtasida jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarini tayyorlash muammolari.....	16
7. A.Sharipov, L.Abdiraxmonov. Oliy taʼlim tizimida mustaqil taʼlimning axborot texnologiyalari bilan oʻzaro bogʻliqligi.....	18
8. O. Matqurbonova. Omon Matchon ijodida dialektizmlarning qoʻllanishi.....	20
9. S.Yangiboyeva. Oʻzbek tilida ergonimlar.....	22
10. L.Xusainova. Onomastika haqida umumiy tavsif.....	24
11. A.Allaberganova. Ona tili darslarida onomastik materiallardan foydalanish.....	25
12. A.Примов, Н.Урниова. Атокли отлар асосида бошка луғавий бирликларнинг ҳосил бўлиши ҳақида.....	28
13. D.Allaberganova. Ayrim arabiy oʻzlashmalar tahlili.....	30
14. Ж.Рахимов. Семантическое освоение информационно-коммуникативных лексем.....	32
15. J.Masharipov. Conceptual meaning and types of metaphor.....	34
16. F.Karimova. The concept of lullaby and its characteristics in English and Uzbek languages.....	36
17. K.Ahmedova. The cultural component in teaching English as a foreign language in Uzbekistan.....	38
18. A.Matkarimov. Lingua cultural peculiarities of english folk songs and uzbek "lapar" and their comparative analysis.....	40
19. A.Jumaniyozov, Sh.Rahimova. Inson qiyofasiga monandlik asosida yasalgan bahuvrihilar.....	42
20. Г.Кабулова. Трагедия "Гамлет" – богатейший источник шекспиризмов.....	44
21. D. Sarayeva, M. Yusupova. Lingvomadaniyatshunoslikni tilshunoslikdagi oʻrni.....	46
22. Ж.Джумабаева, Х.Курязова. Peculiarities of body language in communication.....	48
23. G.Saparbayeva, B.Sarayeva. Yevropa va Markaziy osiyo xalqlari eposlaridagi oʻxshash sujetlarning lingvistik jihatdan tahlili.....	50
24. X.Aminov. Azaliy hamkorlikning yangi bosqichi (Oʻzbekiston–Xitoy misolida).....	52
25. H.Abdullayeva. XVIII–XIX asrlarda Buxoro amirligida madaniy hayot.....	54
26. O. Matqurbonov, I.Matqurbonova. Oʻzbekistonning taʼlim sohasida tanlagan yoʻli xorijliklar eʼtirofida.....	56
27. A.Шеров О.Сандов. Олий таълим муассасаларига бюджетдан ташқари маблағлар жалб этишни такомиллаштириш.....	58
28. Sh. Jumaniyazova. Sanoat tarmogʻining milliy iqtisodiyotdagi roli va uning rivojlanish istiqbollari.....	60
29. B.Эгамов, О.Сандов. Таълим тизимини молиялаштиришнинг хорж тақрибаси.....	62
30. Ж.Худайберганов. Ўзбекистонда санатор-курорт хизматлари ва ундан фойдаланишни яхшилаш йўллари.....	64
31. Ф.Абдуллаев, Б.Рахимов. Лизинг хизматлари бозорини ривожлантиришнинг устуви йўналишлари.....	66
32. Sh.Hasanov, M.Baltayeva, X.Eshchanov. Tabiiy ipak chiqindi tolasidan olingan sohat bilan paxta moyini tozalash samaradorligi.....	68